



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th September, 2025

QIDIRBAY SOIPOV IJODINING QORAQALPOQ TEATR SSENOGRAFIYASIDA TUTGAN O'RNI

Tleumuratova Aziza Jumabek qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn

Institute mustaqil izlanuvchi (PhD) doktoranti

Annotatsiya:

Mazkur tezista Qoraqalpog'istondagi birinchi professional rassomlardan biri, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasiga xizmat ko'rsatgan san'at xodimi, Berdaq nomidagi respublika mukofoti sovrindori Qidirboy Soipov va uning Qoraqalpoq teatr ssenografiyasida tutgan o'rni, u bezatgan spektakllar va dekoratsiya eskizlari haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: dekotasiya, eskiz, ijod, teatr, rivojlanish, dramaturgiya, rassom-rejissor.

РОЛЬ ТВОРЧЕСТВА КИДИРБАЯ СОИПОВА В СЦЕНОГРАФИИ КАРАКАЛПАКСКОГО ТЕАТРА

Национальный институт художеств и дизайна имени

Камолиддина Бехзода

независимый исследователь (PhD) докторант

Тлеумуратова Азиза

Аннотация:

В данной тезисе рассматривается творчество одного из первых профессиональных художников Каракалпакстана, заслуженного деятеля искусств Республики Узбекистан и Республики Каракалпакстан, лауреата Республиканской премии имени Бердака — Кидирбая Соипова, а также его роль в сценографии каракалпакского театра. В работе освещены оформленные им спектакли и эскизы декораций, даны размышления о его художественном наследии.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th September, 2025

Ключевые слова: декорация, эскиз, творчество, театр, развитие, драматургия, художник-режиссёр.

Qoraqalpoq rangtasvirining rivojlanishi va shakllanishi XX asrning 1950-yillarining ikkinchi yarmi - 1960-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. Rangtasvir bo'yicha birinchi maxsus badiiy ta'lim olgan rassomlardan biri - Qidirboy Soipov (1939-1972).

Qidirboy Soipov Qoraqalpog'istondagi birinchi professional rassomlardan bo'lib, u o'zining qisqa hayoti davomida Qoraqalpoq tasviriy sana'tining rivojlanishiga katta hissa qo'sha oldi. Qidirboy Soipov 1939-yili Chimboy tumanida tavallud topgan. U O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasiga xizmat ko'rsatgan san'at xodimi, Berdaq nomidagi respublika mukofoti sovrindori. 1957- yili Toshkent shahridagi Benkov nomidagi sana't bilim yurtini tugatgach, Nukus shahridagi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida rassom-rejissyor sifatida mehnat faoliyatini boshlaydi, 1958-yildan esa bosh rassom lavozimida faoliyat yuritgan.

Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi I.V.Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyi fondida rassomning yuzdan ortiq rangtasvir va grafika asarlari qatorida dekoratsiya eskizlari saqlanmoqda.

Saipov teatr faoliyatini tarixiy mavzudagi "Baxt" spektaklini bezashdan boshlagan (1957-yil oxiri). Keyingi yillarda u K. Vinnikov va Yu. Oskarovning qadimiy hind afsonasi asosida yozilgan "Oq lotus" (1959) spektaklini bezadi. Ushbu spektakl uchun tayyorlangan eskizlar Moskva shahridagi B.Baxrushin nomidagi teatr muzeyi tomonidan xarid qilingan.

1961-yili Q.Saipov Qoraqalpog'iston rassomlar uyushmasi tashkiliy qo'mitasining mas'ul kotibi etib tayinlandi. Eskizlarni, kartinalarni ko'rish va ularni baholash, turli ko'rgazmalarga tayyorlanish, ijodiy buyurtmalarni tekshirish va ishlab chiqarish ustaxonasidagi ishlar va hokazolar uning vazifasiga kirardi.

Lekin bu ishlar uning teatrdagi mas'uliyatiga xalaqit bermadi. Shu yili u N.Davqarayevning "Alpomish" nomli musiqali dramasini bezaydi. Bu postanovka o'sha vaqtdagi rassomning eng yirik asari bo'ldi. Q.Saipovning epik asarlarni



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th September, 2025

sahnalashtirishdagi ishtiroki qoraqalpoq xalqining o'tmish qahramonlik o'tmishiga bag'ishlangan yirik yodgorlik sifatida ko'rinadi.

Rassom "Alpomish"ni sahnalashtirishda etnografik materiallardan mohirona foydalandi. 1960-yillarning boshida Q.Saipov Dushanbedagi S.Ayniy nomidagi opera va balet teatrida K.Lektovning "Kuba qizi" operasini bezadi. Bu uning operani sahnalashtirishdagi, bezashdagi birinchi tajribasi edi.

Q. Soipov shu yili A. Shamuratov va I. Yusupovning "Qirq qiz" va yana bir qancha spektakllarni bezadi. Rassom ijodida tarixiy-inqilobiy, ertak-afsona mavzusidagi spektakllarga ishlagan dekoratsiyalari keng o'rin egallaydi. Shulardan va musiqali drama: T.Qayipbergenovning "Qoraqalpoq qizi" (1967y. rejissyori R.To'reniyazov) va A.Begimov, T.Allanazarovning "G'arib oshiq" spektakllariga ham dekoratsiya ishladi. U bir necha yil davomida har xil bayram, voqealarni bezaydigan rassom sifatida ham ko'zga tashlandi.

Uning Toshkentdagi haftaliklarning tantanali ochilishi va yopilishi konsertlarini, Xorazmdagi madaniyat kunlarini bezashi eng yirik bezash ishlaridan hisoblanadi [1.2].

Soipov yaratgan dekoratsiya eskizlarida spektakllarning davr ruhi va milliy koloritini ochib berishga intildi, asar ruhiga mos sahna bezaklari yaratdi: "Baxt" (1957), "Berdaq" (1958), "Oygul va Obod" (1959), "Dashtdagi to'y" (1959), "Oq gul", "Ku'ygelek ko'zli yar", "Adashgan o'g'il" (1960), "Aziz tabib", "Yosh yuraklar", "Alpomish" (1961), "Oshpaz" (1961), "Taluas" (1962), "Tobutdan sado" (1963), "Qudag'ay keldi", "Jon qizlar" (1964), "Sheberxanning shimawig'i", "Ariwlar", "Qiz hazillari" (1966), "Qora gul", "Ikki bo'yga bir xizmatkor", "Aldar kose" (1967) "Qoraqalpoq qizi", "Aktrisa qismati", "Oila", "Hayot bulog'i" (1968), "Navoiy Astrabotda" (1968), "Ahmoq shox" (1968), "Jalinlar" (1969), "Moskvali kelin" (1969), "Ug'ilxonlat qissasi" (1969), "Otello" (1970), "Onajonlarim", "Orol ovozi", "Tiklangan tu" (1971), "Sarviquomad dilbarim", "Umirbek laqqi", "Mamanbiy", "Ona yer ona" (1972).

Qisqa vaqt ichida rassom tomonidan 50 dan ortiq spektakllarni bezatgan. Dastlabki professional rassomlaridan biri bo'lgan Q.Saipov qisqa umr ko'rgan bo'lishiga qaramasdan, bugungi kunning dolzarb muammolariga bag'ishlangan sahna asarlari

Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th September, 2025

bilan tomoshabinlar ma'naviyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shib, qoraqalpoq teatri ssenografiyasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.



“Alpomish” spektakliga sahna eskizlari. 1961

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abatov, J., & Uzakbaev, A. (2025). SÚWRETLEW ÓNERINDE Q.SAIPOV DÓRETIWSHILIGIN TALABALARÁ ÚYRETIW. Modern Science and Research, 4(5), 377–379.
2. I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq Davlat San'at muzeyi arxivi. “Алпамыс. Тронный зал” (КП-80347); “Алпамыс. Уход из Бойсуна” (КП-8348); “Алпамыс. Ак-булак” (КП-71). Nukus.
3. <https://berdax-teatr.uz/484-hudozhnik-sajpov.html>